

TO'RAQO'RG'ON ISSIQLIK ELEKTR STANSIYASI

Muhammedova Nazokat

Navoi davlat pedagogika instituti dotsenti

Talabboyeva Mohina

Navoi davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada To'raqo'rg'on IESni ishga tushurilishi, qaysi viloyatlarni elektr energiya bilan ta'minlashi hamda yiliga qancha elektr energiya ishlab chiqishi ko'rsatib o'tilgan.*

Kalit sòz: *Namangan, To'raqo'rg'on IES, Andijon, Farg'ona, elektr energiya*

To'raqo'rg'on IES- O'zbekistonning Namangan viloyatida joylashgan issiqlik elektr stansiyasi. Geotermal koni Katta Namangan kanali hisoblanib, Yillik elektr energiyasi ishlab chiqarishi 6800 mln kVt-s hamda Elektr quvvati, MVt 900 MVt ni tashkil qiladi.

Elektr stansiyasi Farg'ona vodiysining elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojini qoplashi kutilgan. «O'zdavenergonazorat» inspeksiyasi Namangan hududiy bo'limi inspektori Sherzod Hojiyevning ta'kidlashicha, mazkur muhim loyiha bo'yicha bunyodkorlik ishlari izchil davom ettirilmoqda.

«O'zbekenergo» aksiyadorlik jamiyati buyurtmasi asosida barpo etilayotgan stansiyaning umumiy loyiha qiymati 1 milliard 195 million 870 ming AQSh dollariga teng. Birinchi energiya blokini ishga tushirish 2019-yilning dekabrda, ikkinchisi 2020-yilning martda amalga oshirilgan. 2017-yilda ikkala quvvat blokining ishga tushirilishi avvalroq e'lon qilingan edi. Bo'lajak elektr stansiyasi hududida umumiy qurilish ishlari 2013-yil avgust oyida boshlangan. 2014-yil 10-noyabrda Toshkentda JICA bilan hamkorlikda Farg'ona vodiysida issiqlik elektr stansiyasini qurish uchun O'zbekiston hukumatiga 40 yil muddatga yillik 0,3 % stavkada 10 yillik imtiyozli davr asosida 71,839 million yevro miqdorida kredit ajratish to'g'risida bitim imzolangan. 2015-yil oxirida elektr stansiyasini qurish uchun tender e'lon qilingan. Ushbu tenderda g'oliblikni Yaponiyaning „Mitsubishi Corporation« kompaniyasi qo'lga kiritgan. Hozir bu yerda ob'yektgacha bo'lgan yo'l va kommunikatsiya tarmoqlari, direksiya ma'muriyati uchun ikki qavatli bino, yong'in xavfsizligi xizmati inshootlari, soatiga 120 kub metr ishlab chiqarish quvvatiga ega beton zavodi va boshqa ko'plab yordamchi xo'jalik inshootlari qurilgan. Bundan tashqari, IESda ishlovchilar uchun qurilayotgan to'rt qavatli ikkita turar joy binosida pardoqlash ishlari olib borilmoqda. Qurilish-montaj ishlariga 800 ishchi va 44 maxsus texnika jalb etilgan.

Issiqlik elektr stansiyasi qurilishini investitsiya dasturi asosida moliyalashtirish bo'yicha o'tkazilgan tender tanlovlari natijalariga ko'ra, loyihaga konsalting xizmati ko'rsatish Yaponiyaning «TEPSKO» kompaniyasi tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu kompaniya bilan 18 million 338 ming dollarlik shartnoma imzolangan. Shuningdek, xalqaro tenderda Yaponiyaning «Mitsubishi Corporation», «Mitsubishi Hitachi Power Systems» konsorsiumi bosh pudratchi sifatida g'olib, deb topilgan.

Ushbu kompaniya bilan 749,43 million dollarlik shartnoma imzolangan. 2017 yilning 1 yanvaridan boshlab yordamchi pudratchi – Turkiyaning «Salik Enerji» kompaniyasi muhandis-texnik mutaxassislari ham qurilish-montaj ishlarida faol ishtirok etayotir. 2020-2021 yil Kuz-qish mavsumiga puxta tayyorgarlik ko'rish hamda stansiyaning to'liq quvvatlarda ishlashini ta'minlash maqsadida 2020-yil 9-11 oktyabr kunlari vaqtinchalik to'xtatilgan To'raqo'rg'on issiqlik elektr stansiyasining ikkita bug'-gaz qurilmasi faoliyati to'liq tiklandi. Ushbu bug'-gaz qurilmalarining ishga tushirilishi bilan To'raqo'rg'on IESda ishlab chiqariladigan elektr energiyasining belgilangan quvvatlarda uzatilishi yo'lga qo'yildi. Stansiyada o'rnatilgan bug'-gaz qurilmasi mamlakatimiz IESlarida joriy etilgan eng yetakchi energosamarador uskuna hisoblanadi. Umumiy quvvati 900 MVt bo'lgan ushbu qurilmalar bir sutkada 21 mln.kVt-soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Shu bilan birga, stansiyaning foydali ish koeffisienti 57 foizdan ortiqni tashkil qiladi. To'raqo'rg'on IES bug'-gaz qurilmalarining joriy ko'rigidan so'ng mazkur elektr stansiya 2020-2021-yillar kuz-qish mavsumida samarali va uzluksiz elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'ldi. Ushbu bug'-gaz qurilmalarining ishga tushirilishi bilan To'raqo'rg'on IESda ishlab chiqariladigan elektr energiyasining belgilangan quvvatlarda uzatilishi yo'lga qo'yildi. Stansiyada o'rnatilgan bug'-gaz qurilmasi mamlakatimiz IESlarida joriy etilgan eng yetakchi energosamarador uskuna hisoblanadi. Umumiy quvvati 900 MVt bo'lgan ushbu qurilmalar bir sutkada 21 mln.kVt-soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Shu bilan birga, stansiyaning foydali ish koeffisienti 57 foizdan ortiqni tashkil qiladi.

To'raqo'rg'on IES: suv nasos uskunalari va yoqilg'i ta'minoti tizimi barqaror ishlari uchun nazorat tadbirlari o'tkazildi. Farg'ona vodiysini elektr energiyasi bilan ta'minlovchi asosiy elektr stansiya hisoblangan To'raqo'rg'on IESda ishlab chiqarish jarayoniga halaqit bermagan holda, suv nasoslari uskunalari hamda yoqilg'i ta'minoti tizimida nazorat tadbirlari o'tkazildi. Bu kabi ishlar joriy qish mavsumida ishlab chiqarish quvvatlari barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Hozirgi kunda IES Namangan, Andijon hamda Farg'ona viloyatlarini elekt energiya bilan ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Сатторов, Акрамжон „Когда завершится строительство Туракурганской ТЭС?“. УзА (2018-yil 2-aprel). 20-aprel 2018-yilda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2018-yil 23-iyun.
2. „Внеочередная сессия Наманганского областного Кенгаша народных депутатов“. УзА (26-oktabr 2015-yil). 18-iyun 2018-yilda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2018-yil 23-iyun.
3. „Mitsubishi выиграла тендер на строительство Туракурганской ТЭС“. Газета.uz (26-oktabr 2016-yil). 29-sentabr 2020-yilda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2018-yil 23-iyun.
4. „Постановление Президента Республики Узбекистан «О первоочередных мерах по реализации проекта „Строительство Туракурганской тепловой электростанции“» от 7 ноября 2014 года № ПП-2260“. 26-yanvar 2019-yilda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 23-iyun 2018-yil.
5. „Подписано заемное соглашение по проекту строительства Туракурганской ТЭС“. УзА (11-noyabr 2014-yil). Qaraldi: 2018-yil 23-iyun.